

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

**Plastik kartochkalar va ularning pul muomilasini barqarorlashdagi  
o`rni**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*O`qituvchi: Abduvahobov Shaxzod*

*Talaba: Tursunmurodov Islomjon*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola bank ishi asoslari fanining plastik kartochkalar va ularning pul muomilasini barqarorlashdagi o`rni mavzusini rivojlantirishga bag`ishlangan. Shuningdek, plastik kartochkalar haqida malumot olish, ularning pul muomilasidagi o`rni haqida malumotga ega bo`lish ushbu maqolaning bosh g`oyasi hisoblanadi. Shuni aytib o`tish kerakki, plastik kartochkalar sohasiga yangiliklar kiritish, bu sohani tubdan rivojlantirish nafaqat pul muomilasini barqarorlashtiradi, balki kundalik hayotimizda ham ko`plab qulayliklarga sabab bo`ladi.

**Kalit so`zlar:** Plastik kartochkalar, moliyaviy operatsiyalar, naqd pul, bank.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья посвящена развитию науки об основах банковского дела, пластиковых картах и их роли в стабилизации денежных операций. Также получение информации о пластиковых картах и их роли в денежных операциях – основная идея данной статьи. Следует отметить, что внедрение инноваций в сфере пластиковых карт, фундаментальное развитие этой сферы не только стабилизирует денежные операции, но и внесет множество удобств в нашу повседневную жизнь.

**Ключевые слова:** Пластиковые карты, финансовые операции, наличные деньги, банк.

**ABSTRACT:** This article is dedicated to the development of the science of the basics of banking, plastic cards and their role in stabilizing monetary transactions. Also, getting information about plastic cards and their role in money transactions is the main idea of this article. It should be mentioned that the introduction of innovations in the field of plastic cards, the fundamental development of this field

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

*will not only stabilize money transactions, but also cause many conveniences in our daily life.*

***Key words:*** Plastic cards, financial transactions, cash, bank.

### **KIRISH**

Rivojlangan mamlakatlarda tovarlar va xizmatlar to‘lovi uchun plastik kartochkalar keng qo‘llaniladi. Aholi uchun ham, banklar uchun ham va chakana savdo uchun ham ulardan foydalanish qulay. Plastik kartochkalarning bir qator afzalliklari bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonda ulardan foydalanish ko‘pincha turli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Asosiy muammo — ba’zi savdo rastalarida terminallarning yo‘qligi va karta ichidagi mablag‘ni naqdashtirish masalasi. O‘zbekistonda plastik kartochkalarning paydo bo‘lishi tom ma’noda portlash kabi hodisa: 2005-yildan buyon kartalar soni 45,5 baravarga , jismoniy shaxslarning kredit kartochkalari orqali milliy valyutada amalga oshirgan bitimlari soni esa — 371 marta oshdi. Bir qarashda bu quvonarli holdek tuyuladi. Biroq, O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson plastik kartalarning muomalaga kiritilishi hayot tarzini yaxshilagani bilan birga uni og‘irlashtirganini ham juda yaxshi biladi. Avvalo, plastik kartaning ishslash tizimini tushunib olish kerak. Gap aslida dunyoning deyarli barcha davlatlarida bu tizimning qanday ishlashi haqida.

Plastik kartochkalardan foydalanishning asosiy tamoyili — bu ixtiyoriylik. Ulardan foydalanish yoki foydalanmaslik to‘g‘risida odamlar o‘zlari ixtiyoriy ravishda, ma’muriy majburlashlarsiz, qaror qilishlari lozim.

Kartochkalardan foydalanish qulay va foydali bo‘lgandagina, ular qo‘llaniladi. Gap shundaki, kassa yoki bankomat orqali pul naqdashtirilganida banklar ko‘pincha komission haq oladi, ularda bu ko‘rsatkich bizdagidek ulkan emas va ko‘pincha 1–2 foizdan oshmaydi. Bunda iste’molchi kartochka bilan hisob-kitob qilganida ana shu komission haqni to‘lamaydi. Bundan tashqari, banklar ko‘pincha savdo tarmoqlari, kommunal xizmatlar, aviakompaniyalar va boshqa sotuvchilar bilan o‘sma bankning plastik kartalari orqali to‘lovni amalga oshirganda mijozga chegirmalar taqdim etish bo‘yicha kelishib olishadi. Avvaliga plastik kartalar tizimi qanday ishlashi lozimligini tushunib olishimiz kerak. Gap uning ideal tarzda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ishlashi qanaqa bo‘lishi haqida ham emas, shunchaki, jahonning bizdan boshqa barcha davlatlarida qanday ishlayotgani xususida.

Bu yerda yana bir tamoyil — raqobatbardoshlik tamoyili ishlaydi. Agar moliya sektorida raqobat rivojlangan bo‘lsa, banklar o‘z mijozlari uchun kurashadi hamda ularni o‘z mahsulot va xizmatlari bilan jalb qilishga harakat qiladi. Shu maqsadda bank o‘z plastik kartalarini iste’molchilar uchun “jozibador”ga aylantirishga urinadi.

Bankomat orqali zarur miqdordagi pulni naqdlashtirib olish. Buning uchun kichik foizni to‘lash kerak bo‘lsa-da, siz amalda buning imkonini borligini bilasiz. Nihoyat, plastik kartalardan foydalanish mexanizmlari juda oddiy va qulay bo‘lishi. Osonlik bilan bank hisob raqami yoki internet orqali depozit bilan karta hisobini to‘ldirish mumkin. Osongina kartadan kartaga pul o‘tkazish va internet orqali xarid qilish mumkin.

Plastik kartalar aynan chakana savdo sohasida tashkil qilinayotgan to‘lov jarayonlarini zamonaviy tarzda, qulay va tez amalga oshirilishini ta’minlash bilan birga davlatning monetar siyosati samarasini oshiruvchi vosita ham desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Plastik kartalar yordamida tashkil qilinayotgan pul aylanmasining holatiga ob’yektiv baho berish mumkin va shu bilan birga uning kelajak holatini aniq prognozlash hamda ushbu to‘lov vositalari orqali makroiqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish holatini kuzatish mumkin.

Bank plastik kartalari bozorining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmokdaki, davlat tomonidan qabul qilingan bir qator normativ hujjatlar ushbu to‘lov vositasining sonini, uning yordamida to‘lov aylanmasining miqdori va hajmini oshishi hamda kartali to‘lov tizimlarining infratuzilmasini rivojlanishiga zamin yaratib berdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi «Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 445-sон qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 3 avgustdagи "Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

to‘g‘risida”gi 433-sон qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1325-sон qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 1438-sон qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 fevraldagi “Bank plastik kartalari asosida naqdsiz hisob-kitoblar oshirish tizimini yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish, xalqaro to‘lov tizimi standartlari, qoidalari va jarayonlari asosida progressiv yutuqlarni tatbiq etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sон qarori respublikada plastik kartalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora tadbirlarni amalga oshirishga yuridik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Xulosa:**

Bugungi kunda kundalik hayotimizni plastik kartochkalarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Kartadan kartaga to`lovlar, bankamatdan naqd pul yechib olish, istalgan joyda to`lov qilish kabi ko`plab pul muomilasi plastik kartalarsiz amalga oshmaydi. Plastik kartalar bilan bog`liq turli operatsiyalarga yangilanishlar olib kirish va uni yurtimizda qo`llash kabi ustuvor masalalarni ushbu maqolaning asosiy maqsadi deb belgilab olamiz. Plastik kartochkalari har tomonlama qulayligi bilan pul muomalasini barqarorlashtiradi. Plastik kartochkalar bilan bog`liq faoliyatni rivojlantirish kundalik hayotimizni qulaylashtirish demakdir.

### **Foydalaniman adabiyotlar:**

Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)

Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank’s General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improvement of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)

[https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/zamonaviy\\_tulov\\_vositasi\\_-\\_bank\\_tulov\\_kartalari](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/zamonaviy_tulov_vositasi_-_bank_tulov_kartalari)

<https://daryo.uz/2017/05/29/plastik-kartochkalar-ozbekistonliklar-uchun-manfaatlimi-yoki-bosh-oqrigi>